

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamg‘armasi” Davlat muassasasi “Navoiy” Hududiy boshqarmasi IOBga qarashli “Farxod” MSdagi Raqs to‘garagi binosida muqobil energiya tizimini yaratish maqsadida gaz qozonxonalarini o‘rnatish ishlari xaridi bo‘yicha

### **TEXNIK TOPSHIRIQ**

Navoiy sh.  
2022 y.

**TARKIB:**

<b>Bo'lim №</b>	<b>Nomlanishi</b>	<b>Bet.</b>
1-BO'LIM.	BAJARILADIGAN ISHLAR VA KO'RSATILADIGAN XIZMATLARNING NOMI VA MAQSADI	3
2-BO'LIM.	LOYIHANI AMALGA OSHIRISH UCHUN ASOS	3
3-BO'LIM.	ISHLAR, XIZMATLARNING RO'YXATI VA ULARNING HAJMI	3
4-BO'LIM.	ISH BAJARISH VA XIZMAT KO'RSATISH JOYI	3
5-BO'LIM.	ISH BAJARISH VA XIZMAT KO'RSATISH SHARTLARI	3
6-BO'LIM.	BAJARUVCHIGA QO'YILADIGAN TALABLAR	4
7-BO'LIM.	ISHLARNI BAJARISH VA XIZMAT KO'RSATISH MUDDATI	4
8-BO'LIM.	ISH VA XIZMATLAR BAJARILISHIDA XAVFSIZLIK TALABLARI VA ULARNING NATIJALARI	4
9-BO'LIM.	ISH VA XIZMATLARNI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI	5
10-BO'LIM.	TEXNIK VA BOSHQA HUJJATLARNI TOPSHIRISH BO'YICHA TALABLARI	5
11-BO'LIM.	BAJARUVCHI TOMONIDAN BUYURTMACHI XODIMLARINI TEXNIK O'QITISH TALABLARI	5
12-BO'LIM.	ISH VA XIZMATLAR SIFATIGA QO'YILADIGAN KAFOLAT HAJMIGA TALABLAR	5
13-BO'LIM.	ISH VA XIZMATLAR NATIJALARINING SIFAT KAFOLATLARI MUDDATLARINI KO'RSATISH BO'YICHA TALABLAR	5
14-BO'LIM.	INTELLEKTUAL MULKKA MUTLAQ HUQUQLARNI O'TKAZISH SHARTLARINI KO'RSATUVCHI MUALLIFLIK HUQUQI	5
15-BO'LIM.	ISH, XIZMATLAR UCHUN BOSHQA TALABLAR	6
16-BO'LIM.	TAQDIM ETILADIGAN AXBOROT SHAKLIGA QO'YILADIGAN TALABLAR	6
17-BO'LIM.	QABUL QILINGAN QISQARTMALAR RO'YXATI	6
18-BO'LIM.	ILOVALAR RO'YXATI	6

**1-Bo'lim.**  
**BAJARILADIGAN ISHLAR VA KO'RSATILADIGAN XIZMATLARNING NOMI VA MAQSADI**

“NKMK jamg'armasi” davlat muassasida bosqichma-bosqich muqobil energiya tizimlarini yaratish va natijada energiya samaradorligini oshirish maqsadida “Navoiy” Hududiy boshqarmasi IOBga qarashli “Farxod” MSdagi Raqs to'garagi binosida gaz qozonxonalarini o'rnatish.

**2-Bo'lim.**  
**LOYIHANI AMALGA OSHIRISH UCHUN ASOS**

Ushbu loyihani amalga oshirish uchun asos O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.08.2019 yildagi “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbiri to'g'risida”dagi PQ-4422-sonli qarori, 2022 yilda “NKMK jamg'armasi” davlat muassasasida energiya samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytirish bo'yicha “YO'L XARITASI” va “Issiqlik manbai” davlat unitar korxonasi 2022-yil 26-avgustdagi 03-04/08-1866-sonli xat ijrosi.

**3-Bo'lim.**  
**ISHLAR, XIZMATLARNING RO'YXATI VA ULARNING HAJMI**

1. “Navoiy” Hududiy boshqarmasi IOBga qarashli “Farxod” MSdagi Raqs to'garagi binosida gaz qozonxonalarini o'rnatish.
2. Lokal issiqlik beruvchi gaz qozonlar o'rnatishda sarflanadigan xarajatlar, xususan transport xarajatlari va tovar-moddiy boyliklari Bajaruvchi hisobidan amalga oshiriladi.
3. Bajaruvchi tomonidan ishlatiladigan (sarflanadigan) materiallar quydagilar:

- ikki kontrli kondensatsion Vicesmann VP AIHB 34 kW	- 2 dona
- uch bosqichli taqsimlavchi ventil Ø25	- 2 dona
-suv uchun qaytarish klaopni Ø 25	- 2 dona
- mexanik tozlash filtri Ø 25	- 2 dona
- monometr	- 2 dona
- zulfin (zadvishka) Ø 25	- 2 dona
- Ventil Ø 25	- 2 dona
-termoregulyator datchigi	- 2 dona
- Plastmas quvur Ø25mm	- 10 m
4. Bajaruvchi tomonidan ishlar amalga oshirilib, gaz qozonlari ishga tushirilgandan keyin Bajaruvchi tomonidan 3 yil davomida servis xizmatlari ko'rsatiladi.

**4-Bo'lim.**  
**ISH BAJARISH VA XIZMAT KO'RSATISH JOYI**

**Buyurtmachining yuridik manzili:**  
Navoiy viloyati, Navoiy shahri Navoiy ko'chasi 21

**Ishlar, xizmatlar ko'rsatish joyi:**  
Navoiy viloyati, Navoiy shahri “Farxod” Madaniyat Saroyi.





**5-Bo'lim.**

**ISH BAJARISH VA XIZMAT KO'RSATISH SHARTLARI**

Gaz qozonlarini o'rnatishda, Bajaruvchi/xizmat ko'rsatuvchi tashkilot yong'in xavfsizligi, sanoat xavfsizligi va boshqa huquqiy normalar asosida ish olib borishni ta'minlashi zarur, o'rnatiladigan va sarflanadigan tovar-moddiy boyliklar Buyurtmachi mutaxassisi ishtirokida o'rnatish ishlarini amalga oshiradi. Ishlar bajarilgandan keyin Bajaruvchi 3 yil davomida o'z hisobidan (bepul) servis xizmatlarini ko'rsatadi.

**6-Bo'lim.**

**ISHTIROKCHIGA QO'YILADIGAN TALABLAR**

Ishtirokchilar Buyurtmachiga 1-Jadvalga muvofiq tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishlari zarur. Bajaruvchi tashkilotni tanlash quyida keltirilgan mezonlardan kelib chiqib amalga oshiriladi:

*1-Jadval*

No t/r	Mezonlar	Tasdiqlovchi hujjatlar
1	Bajaruvchi tomonidan o'rnatilgan barcha texnik qurilmalarga kamida 3 (uch) yil servis xizmat ko'rsatishni ta'minlovchi va kafolatlovchi hujjatlar bo'lishi zarur.	Bajaruvchi tomonidan, servis xizmatlarini ko'rsatish uchun kafolat xati taqdim etilishi kerak
2	Bajaruvchi tomonidan texnik shartlarda va ilovada ko'rsatilgan texnik qurilmalar, gazqozonlar, sirkulyatsion nasoslar bilan shartnoma imzolangandan so'ng 15 (o'n besh) kun muddatda ta'minlay olishi zarur.	Bajaruvchi tomonidan texnik shartlarda va ilovada ko'rsatilgan texnik qurilmalar, gazqozonlar, sirkulyatsion nasoslar va boshqalar bilan belgilangan 15(o'n besh) kun muddatda ta'minlay olishini tasdiqlovchi hujjatlar.
3	Bajaruvchi tomonidan o'rnatiladigan jixoz va qurilmalar, hamda ishlatiladigan tovar-moddiy boyliklar yangi oldindan ishlatilgan bo'lmasligi kerak.	Bajaruvchi tomonidan TMB, jixoz va qurilmalarnig pasporti va tegishli sertifikatlarini tasdiqlangan hujjatlar asosida taqdim etilishi va o'rnatiladigan gazqozonllar rejim kartalarini taqdim etishi kerak.
4	Bajaruvchi ushbu sohada kamida 2 (ikki) yil ish tajribasiga ega bo'lishi kerak.	Bajaruvchining tajribasini tasdiqlovchi hujjatlar (ro'yxatdan o'tganligi to'g'risida hujjatlar, litsenziyasi).
5	Bajaruvchi ishlarni bajarishi uchun zarur bo'lgan kamida 4 nafar yuqori malakali mutaxassis ishchi xodimni jalb qilishi kerak.	Bajaruvchi tomonidan malakali mutaxassislari va ishchi xodimlarning maxsus sertifikatlaridan nusxalar taqdim etilishi zarur.

Yuqorida keltirilgan tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etmaslik Buyurtmachiga ishtirokchining taklifini ko'rib chiqmaslik uchun asos yaratadi.

**7-Bo'lim.**

**ISHLARNI BAJARISH VA XIZMAT KO'RSATISH MUDDATI**

"Navoiy" Hududiy boshqarmasi IOBga qarashli "Farxod" MSdagi Raqs to'garagini muntazam issiq suv va issiqlik bilan ta'minlash maqsadida lokal issiqlik beruvchi gaz qozonlar o'rnatish ishlari shartnoma rasmiylashtirilgandan so'ng 30 kalendar kunida bajarilishi zarur.

*Becunuk*



**8-Bo'lim.**  
**ISH VA XIZMATLAR BAJARILISHIDA XAVFSIZLIK TALABLARI VA ULARNING  
NATIJALARI**

Ishlarni va xizmatlarni bajarishda bajaruvchi tashkilot O'zbekiston Respublikasi sanoat xavfsizligi, yong'in xavfsizligi, texnika xavfsizligi va boshqa huquqiy normalar asosida ishlarni olib borishi, ish jarayonlarida maxsus texnik hujjatga ega qurilmalardan foydalanish belgilanadi.

**9-Bo'lim.**  
**ISH VA XIZMATLARNI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI**

Bajaruvchi buyurtmachiga barcha isitish tizimi texnik pasporti va sertifikatlarini taqdim etgandan so'ng, Bajaruvchi va Buyurtmachining vakolatli vakillari tomonidan bajarilgan ishlarni qabul qilish va topshirish dalolatnomasi tomonlarning imzolari orqali tasdiqlanadi, hamda ish tugallangan hisoblanadi.

**10- BO'LIM.**  
**TEXNIK VA BOSHQA HUJJATLARNI TOPSHIRISH BO'YICHA TALABLARI**

Bajaruvchi Buyurtmachiga quyidagi hujjatlarni elektron va chop etilgan ko'rinishda taqdim etishi kerak:  
-Hisobotlar;  
-Ish bajarganligi haqida dalolatnomalar;  
-Nasos, gazqozon qurilmalari pasporti, sertifikati va gazqozonlar ishlatish rejim kartalari.

**11-BO'LIM.**  
**BAJARUVCHI TOMONIDAN BUYURTMACHI XODIMLARINI TEXNIK O'QITISH  
TALABLARI**

Bajaruvchi ishni bajarish yakunlangandan so'ng, gaz qozonlari va nasos qurilmalarini shuningdek qurilmalarning ekspluatatsiya qilish jarayonlari haqida yetarli bilim berishi va tushuntirishlar olib borishi kerak.

**12-Bo'lim.**  
**ISH VA XIZMATLAR SIFATIGA QO'YILADIGAN KAFOLAT HAJMIGA TALABLAR**

Suv isitish va issiqlik beruvchi manba gazqozonlari, materiallar va nasosi uchun kafolat muddati 5 (besh) yil, texnik xizmat ko'rsatish 3 (uch) yil, gaz qozonlari va nasos qurilmalari texnik ko'rsatkichlar qurilma texnik pasportiga mos ishlashi zarur.

**13-Bo'lim.**  
**ISH VA XIZMATLAR NATIJALARINING SIFAT KAFOLATLARI  
MUDDATLARINI KO'RSATISH BO'YICHA TALABLAR**

Bajaruvchi har bir o'rnatilgan gaz qozonlari, materiallar va nasos qurilmasi uchun kamida 5 (besh) yil kafolat berishi va kafolat davrida nosozlik holati kuzatilsa, Bajaruvchi uni yangisiga almashtirishga yoki servis xizmati ko'rsatib bepul ta'mirlab berishga majbur, o'rnatilgan gaz qozonlari, materiallar, nasos qurilmasi va elektr kabellar 5 (besh) yil kafolat davrida Bajaruvchining aybi bilan yaroqsiz holga kelganda Bajaruvchi tomonidan yangisiga almashtirilishi zarur.

**14- BO'LIM.**  
**INTELLEKTUAL MULKKA MUTLAQ HUQUQLARNI O'TKAZISH SHARTLARINI  
KO'RSATUVCHI MUALLIFLIK HUQUQI**

*Berunul*

Mavjud emas.

**15-BO'LIM .  
ISH, XIZMATLAR UCHUN BOSHQA TALABLAR**

Mavjud emas.

**16-Bo'lim.  
TAQDIM ETILGAN AXBOROT SHAKLIGA QO'YILADIGAN TALABLAR**

Taqdim etilgan barcha ma'lumotlar o'zbek yoki rus tilida bo'lishi kerak. Hujjatlarning, tahrirlash uchun elektron shakli va PDF formatidagi nazorat nusxasi bo'lishi kerak.

**17- BO'LIM .  
QABUL QILINGAN QISQARTMALAR RO'YXATI**

No p/p	Qisqartmalar ro'yxati	Qisqartmalarning toliq yoyilmasi
1	"NKMK jamg'armasi" DM	"Navoiy kon metallurgiya kombinati jamg'armasi" davlat muassasasi
2	"NKMK" DK	"Navoiy kon metallurgiya kombinati jamg'armasi" davlat korxonasi
3	TMB	Tovar- moddiy boyliklar

**18-BO'LIM.  
ILOVALAR RO'YXATI**

No p/p	Ilova nomi	Sahifalar
1	Talab etiladigan tovar-moddiy boyliklar, jihozlar, materiallar va qurilmalar ro'yxati	1

*Beruvchi*

**Ishlab chiqilgan:**

**Ijrochi:**

"Texnik bo'lim" elektromexanigi



B.U. Usmonov

**Kelishilgan:**

"Texnik bo'limi" boshlig'i




U.E. Vosiye

"Prognozlash va iqtisodiy tahlil bo'limi"  
boshlig'i



N.U. Mustapayev

Bosh buxgalter



H.A. Cho'ttiyev

“Yuridik xizmati bo‘limi”  
yuristkonsult



T.M. Ergashev

“Xaridlarni rejalashtirish va zahiralarni  
boshqarish xizmati bo‘limi” boshlig‘i



N.B. Baxronova

“Navoiy” Hududiy boshqarmasi  
elektromexanigi



A.A. Atoyev